

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FIZIKA-MATEMATIKA FAKUL'TETI

**AMALIY MATEMATIKA VA INFORMATIKA
KAFEDRASI**

5480100 - amaliy matematika va informatika ta'lim
yo'nalishi 08.406-guruh bitiruvchisi
XODJAMQULOV SHAVKIDIN JALOLIDINOVICHNING
«O'quv jarayonida “O'qituvchi-60” texnologiyasidan
foydalanish afzalliklari»

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: **B.Mullayev**

FARG'ONA-2012

Bitiruv–malakaviy ishi amaliy matematika va informatika kafedrasining
2012 yil ____ ____ dagi ____ sonli yig'ilishida muhoqama qilingan
va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ f.m.f.n., K.T.Karimov

Taqrizchilar: 1. _____ B.Mullayev

2. _____ f.m.f.n., dotsent A.Abduqodirov

R E J A

KIRISH

I BOB. Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish. bilimlarni nazorat qilish usullari haqida.

- 1.1-§ Ta'limda pedagogik dasturlardan foydalanish.
- 1.2-§ Bilimlarni nazorat qilish usullari.
- 1.3-§ "Universal test" test dasturi haqida.
- 1.4-§ Fanlardan o'zlashtirishni baholashda kompyuter test dasturiy ta'minotlaridan foydalanish.
- 1.5-§ Kompyuter texnologiyalari yordamida test sinovlarini amalga oshirishni avtomatlashtiruvchi dasturlarni yaratish.

II BOB. “O'qituvchi-60” texnologiyasi. Uni ta'lim jarayonida qo'llash.

- 2.1-§ “O'qituvchi-60” tizimining haqida umumiy tushunchalar. Uning texnik ta'minotiga qo'yiladigan talablar.
- 2.2-§ Dasturni o'rnatish va sozlash tartibi.
- 2.3-§ “O'qituvchi-60” tizimida sinfni tashkillash. O'qituvchi, sinf profillarini yaratish.
- 2.4-§ “O'qituvchi-60” tizimida testlarni kiritish va saqlash.
- 2.5-§ “O'qituvchi-60” tizimida test sinovlarini o'tkazish tartiblari, natijalarni taxlil qilish.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz va rejalarimizning samarali taqdiri, avvalambor, davr talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, tafakkurga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liq...

I.A.Karimov

KIRISH

Mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan Respublikamizda yangi iqtisodiy sharoitlar ro'yobga kelyaptiki, bu xalq xo'jaligining barcha soxalarida, xususan, ta'lim tizimida ham qator isloxotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Fan va texnika taraqqiyotining jadal kechayotgani, kompyuter texnikasining keng qo'llanilayotganligi, o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilimlar ko'lamining tobora oshib borayotganligi, ta'limni tubdan yaxshilashni, fanlar bo'yicha milliy va maxalliy sharoitlarga mos keladigan hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradigan dastur va darsliklar, ta'limning zamonaviy metodlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyasining va ularni amalga oshirish vositalarini juda tez rivojlanishi axborot jamiyatining shakllanishini oldindan belgilab beradi. Bunday jamiyatda inson faoliyatining hamma sohalarida mehnat qilayotganlarning mutloq ko'pchiligi axborotlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishlash va uning eng yuqori shakli bilimlarini tarqatish bilan shug'ullanadi. Bu sohada axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2002 yil 30 maydagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmonida axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda dasturiy vositalarni, ma'lumotlarning axborot bazalarini ishlab chiqish, respublika, tarmoq va mahalliy axborot kommunikatsiya texnikasini ishlab chiqish sohalarida ishlash uchun yuqori malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlash haqida ta'kidlab o'tilgan.

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» maqsad va vazifalarini bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarilishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi - ta'lim soxasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qo'lgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash hozirgi davrning eng muxim va mas'uliyatli vazifalaridan biridir.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» to'liq amalga oshishidagi ko'zlangan asosiy maqsadlarning naqadar ezgu ekanini inobatga olsak bugungi kunga kelib o'qitish tizimlarining har bir jabhasida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish zarurati alohida dolzarblik kasb etayotganini sezish qiyin emas.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng axborotlarni kompyuterlashtirish asosida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq, V sessiyasida Prezidentimiz ko'targan masalalar yuzasidan 2001-yil 23-mayda Vazirlar Mahkamasining «2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, «Internet»ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini tashkillash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 230-sonli Qarori qabul qilindi. Biroz vaqtdan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida» 2002-yil 20-maydagi PF-3080 sonli Farmoniga asosan Vazirlar Mahkamasining mazkur nomdagi 200-sonli Qarori qabul qilindi.

Ta'lim jarayonida yangi texnologiyalar, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish tayyorlanayotgan mutaxassislarning sifatini qay darajada ekanligini ko'rsatib beradi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilganidek zamonaviy axborot makonini yaratish respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirishni asosiy omillaridan biridir.

Ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning nazorat sinovlarini yozma ish, og'zaki va test shaklida o'tkazib boriladi. Keyingi yillarda ta'lim tizimida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlardan biri – bu talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning test usuli bo'lib, uni multimediya texnologiyasida joriy qilish boshqa nazoratlarga nisbatan yengil bo'lib kelmoqda. Bugungi ko'nda bilimlarni test sinovlaridan o'tkazuvchi test dasturiy ta'minotlari soni va turlari juda ko'payganligi test sinovlarini o'tkazilishini ommalashtirmoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida kasb hunar kollejlari, akademik litseylar hamda oliy o'quv yurti talabalarining bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va mustaxkamlashda testlardan foydalanish, xususan keng joriy qilinayotgan “O'qituvchi-60” texnologiyasi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Birinchi bobda talabalar bilimi va ko'nikmalarini baholash usullari, test texnologiyasi, fanlardan o'zlashtirishni baholashda kompyuter test dasturiy ta'minotlaridan foydalanish, kompyuter yordamida test olish usullari, maxsus test dasturlari, jumladan “O'qituvchi-60” o'qitish texnologiyasi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Ikkinchi bob ““O'qituvchi-60” texnologiyasi. Uni ta'lim jarayonida qo'llash” deb nomlanib, bunda talabalarning fanlardan o'zlashtirishlarini baholashda qo'llaniladigan “O'qituvchi-60” tizimining yangiligi va uning texnik ta'minotiga qo'yiladigan talablar, dasturni o'rnatish va sozlash tartibi, dasturning imkoniyatlari va vazifalari, tizim yordamida bajariladigan amallar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari sinfni tashkillash, o'qituvchi profilini

yaratish, sinf profilini yaratish hamda o`zgartirish, testlarni kiritish va saqlash, test sinovlarini o`tkazish tartiblari, natijalarni taxlil qilish bo`yich yoriqnomalar keltirilgan.

I BOB. TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. BILIMLARNI NAZORAT QILISH USULLARI HAQIDA.

1.1-§. Ta'limda pedagogik dasturlardan foydalanish

Hozirgi zamon yoshlarini fan asoslari bilan qurollantirishda, o'qitishning ilg'or pedagogikaviy texnologiyalari yutuqlari asosida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risidagi qonun» talablarini bajarish maqsadida ularning aqliy tafakkurlarini yuqori darajada rivojlantirishga erishish ta'lim berish jarayonining eng muxim vazifalardan biridir.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan o'quv-tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanadi.

Bunga sabab:

1. Aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirishning birdan-bir yo'li eng ilg'or pedagog tadbirlardan foydalanish.

2. Fan va texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligini va ularni yoshlar ongiga to'la-to'kis singdirish va yoshlarni xayot talablariga javob beradigan holda tayyorlash uchun vaqtning kamligi va boshqalar.

Bu maqsadga erishish uchun taraqqiy etgan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelinayotgan pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash lozim bo'ladi.

Bu muammoni yechishdagi tezkor usullardan eng qulayi va har tomonlama zaruriy ma'lumotlarni qisqa vaqtda to'plash, taqqoslash, sintez qilish va ularning eng muximlarini ajratib olishga imkon beruvchilari

elektron kutubxonalar, telekonferensiyalar va internetdan foydalanish hisoblanadi.

Bilim olish va bilim berish sohasida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda va bu sohadagi axborotlar ko'pchilikda qizikish uyg'otmoqda. Biror sohada tez va qisqa vaqt ichida eng kerakli bilimlarni o'zlashtirish, ya'ni bilimlar bozoridagi munosabatlar jiddiy o'zgaradi. Bu borada pedagogik dastur vositalarini tuzish va undan dars jarayonida foydalanish bilim olish sifatini tubdan o'zgartiradi. Shunday ekan, darsdagi o'quv materialini tushuntirishdan boshlab, uyga vazifalarni berishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni avtomatlashtirish ehtiyoji tug'iladi. Pedagogik dastur vositalarini shartli ravishda uchta: uskunaviy dastur vositalari, nazorat qilish dastur vositalari va o'rgatishni takomillashtiruvchi dastur vositalari kabi asosiy guruhlariga ajratish mumkin.

Uskunaviy dastur vositalari foydalanuvchining qandaydir bir yo'nalishdagi masalalarni yechishga mo'ljallangan dastur qobiqlaridir (masalan, Power Point, Flash5, XARA3D dasturlari). Bunday dasturlar o'qituvchi tomonidan ma'lumotlar omboridagi ma'lumotlarni qayta ishlagan holda ma'lum darslarni yaratish (savol va javoblar to'plamini ifodalash, chizma va rasmlarni hosil qilish hamda harakatlantirish, ovozli va rangli effektlarni namoyish etish) imkonini beradi.

Nazorat qilish dastur vositalari, asosan, test dasturlaridan iborat bo'ladi (masalan «Ukituvchi-60» , ATS Testing, Veral test dasturlari) va ma'lumotlar omboridagi savollardan foydalangan holda yoki o'qituvchi tomonidan tuzilgan testlar asosida o'quvchilar bilimini nazorat qilish imkonini beradi.

O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalariga predmet o'qituvchisi, psixolog, dasturchi, dizayner kabi qator mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar kiradi. O'qituvchi ular asosida predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini olib borishi mumkin. Bunday darslarni tashkil qilish o'quvchilarda shaxsiy qobiliyatlarni, ya'ni diqqat, kuzatuvchanlik, mantiq, fikrlash tezligi, xulosa chiqarish qobiliyati kabi qator ijobiy xususiyatlarning rivojlanishiga va dars samaradorligining oshishiga olib keladi. Bilimlar ombori yoki pedagogik dastur vositalaridan dars yoki darsdan tashqari jarayonlarda foydalanish katta didaktik ahamiyatga ega. Bunday dasturlardan foydalanishning afzallik tomonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'quvchilarda kerakli texnikaviy ko'nikmalarni hosil qilish vaqti qisqaradi;
- bajartirishga mo'ljallangan topshiriqlar soni va topshiriqni mustaqil bajarish ko'lami ortadi;
- talabaning ishida optimallashtirish tabiiy ravishda hosil qilinadi;
- o'qitishda tabaqalashtirish faollashadi;
- talaba ta'limning sub'ektiga aylanadi, chunki dastur undan faol boshqarishni talab qiladi;
- kompyuter animatsiyasi darslarni jonli olib borish imkonini beradi;
- o'qishga nisbatan motivlar oshadi—dastur bilan muloqot o'quvchilarda darsga ishtiyoqni oshiradi;
- darsda ma'lumotlar omborining uzoqdagi manbalaridan (E-mail, internet va h.k.) ma'lumot olish va shu asosda dars mazmunini boyitish ta'minlanadi.

Pedagogik dastur vositalarining kamchiliklariga o'quvchilarda nutq madaniyati, grafik va yozish madaniyatini rivojlantirishga yetarli e'tibor berilmasligi misol bo'ladi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib dars o'tishga juda katta e'tibor berilmoqda. Dars jarayonida turli elektron darsliklar va videotasvirlardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Bugungi kunda kompyuter – dars o'tish jarayonida eng kuchli vositaga aylandi. Undagi multimedia imkoniyatlaridan foydalanishni har bir o'qituvchi bilishi kerak. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: audio tizimlar, optik va kompakt disklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi; muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. «inson-kompyuter» interaktiv muloqotining yangi darajasi bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki mazkur holat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga

imkon beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalaridan foydalanib dars o'tganda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishini kuzatish mumkin.

1.2-§. Bilimlarni nazorat qilish usullari

Teskari aloqa tamoyili - ta'lim jarayonidagi nozik jihatlardan biri sifatida qabul qilinadi. Teskari aloqa (nazorat) tamoyilidagi asosiy muammolar sifatida quyidagilar olinadi

- So'rov vaqtida butun guruhning samaradorlik (produktiv) bilan ishlashini ta'minlash.
- So'rov o'tkazilayotganda talabaning qo'yilgan masalaga to'la javob berishiga erishish.
- So'rov - o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda birinchi bor tekshirish usuli sifatida.
- So'rovni bevosita o'qitish jarayonida o'tkazishga erishish.
- So'rovni nazorat maqsadida emas, balki kerakli ko'nikmalarni va yangi bilimlarni egallashdagi mustaqil ish sifatida o'tkazish.
- Mustaqil ish sifatida o'tkazilgan so'rovning talabalar mustaqilligini rivojlantirishi, olingan bilimlarini mustahkamlashi, ta'lim jarayonini faollashtirishga yo'naltirish.
- Bilimlarning to'planishiga ko'ra so'rov miqyosining kengayib borishi, ya'ni so'rovning fundamentallashib, asosliroq bo'lishi.
- So'rov jarayonida talabalar shaxsiy mulohazalarini inobatga olish.

Teskari aloqani amalga oshirish yo'nalishlari: materialni tushuntirish vaqtida, boblar va kichik mavzular o'tib bo'lingandan so'ng materialni o'zlashtirish bo'yicha yakuniy tekshirish (boblar, qismlar, choraklar, yarim yillik, yillik bo'yicha).

So'rov usullari: individual so'rov, ommaviy so'rov, aralash so'rov, yozma nazorat ishlari.

Individual so'rov.

Afzalliklari: Butun guruh va o'qituvchi bir kishini tinglashi, javob og'zaki, to'liq, mustaqil bo'lishi. Javobni baholashni odatda xatosiz bo'lishi. Butun javob

sifatining (faktik materialni bilishi, bayon etishda mantiqiy izchillik, ifodalilik, til aniqligi) baholanishi.

Kamchiliklari: bir vaqtda bitta talaba javob bera olishi, bitta darsda ko'pchilik talabani so'rab bo'lmasligi, rejalar va tezislarni tuzishni tekshirib bo'lmasligi, vazifalarni yechish va amaliy bajarishni tekshirib bo'lmasligi, eng qiyini barcha talabalarni bir vaqtda jalb etish imkonini yo'qligi.

Test yordamida bilimlarni nazorat qilish

Malakali ravishda tuzilgan pedagogik test haqqoniy-holisona pedagogik o'lchov vositasi bo'lib, nazorat olib borayotgan shaxsga bog'liq bo'lmaydi.

Test o'quv materialining barcha asosiy mohiyatini o'z ichiga olishi mumkin, ta'lim natijalarini baholashning test usuli bilimni aniq va to'g'ri baholaydi, bunda baholashning ko'rsatkich darajasi oldindan belgilanadi va hamma talabalar uchun umumiy bo'ladi.

Test sinovlari keng qamrovli bo'lib, qisqa vaqt ichida ma'lum bir o'quv materialining (yoki o'quv fani) o'zlashtirilishini umumiy ravishda nazorat qilish imkonini beradi, bunda kuch va vositalar kam sarflanadi. Test sinovlari kompyuterlar vositasida yaxshi avtomatlashtiriladi.

Ammo test sinovlarini umuman kamchiliklardan xoli, deb bo'lmaydi. Test sinovlarining ko'pgina shakllari talabani mustaqil ravishda javoblarni tayyorlash tajribasidan mahrum etadi.

Talabalar bilimni sinash usullarining kamchiliklari va afzalliklarining taxlili shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida og'zaki sinov, yozma ishlar va pedagogik test sinovlarini, iloji boricha, qo'shib olib borish yaxshi natija berishini ko'rsatadi.

Agar test to'g'ri tashkil etilsa, u talabalar bilimni holisona baholash imkonini beradi, chunki bu baho o'qituvchi shaxsga bog'liq bo'lmaydi. To'g'ri bajarilgan test topshiriqlari ma'lum o'lchov darajasi asosida baholanadi. Ammo

faqat malakali ravishda tuzilgan sifatli, ilmiy talablarga asoslangan testgina ana shunday baholash imkonini beradi.

Ma'lumki, nazorat topshiriqlarining mazmuni o'zlashtirishning zaruriy darajasiga mos bo'lishi kerak.

Nazorat topshiriqlariga xotira darajalarini qamrab oladigan turli darajadagi reproduktiv va produktiv savollarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Reproduktiv jarayonda ma'lumotlar, qoidalar, algoritmlar turli birikmalar sifatida qayta esga olinadi, bunda **materialni aynan o'zgarishsiz takrorlash** yoki erkin ravishda so'zlab berish mumkin.

Produktiv o'quv jarayonida esa o'quvchi egallagan bilim va malakalari asosida o'quv darsliklarida berilgan ma'lumotlarga ega bo'ladi. **Produktiv darajadagi o'quv jarayonida mantiqiy fikrlash asosida egallagan bilimlar qayta ishlanadi, takomillashtiriladi, yangi sharoitlarda o'rganiladi.** Bilim egallashning produktiv darajasi o'quvchiga mustaqil ravishda voqealar xamda predmetlar o'rtasidagi munosabatlar, aloqalar xaqida xulosalar chiqarish imkonini beradi, ma'lum qoidalarni qo'llab, masalalarni yechish algoritmini tuzishga yordam beradi.

Izlanishlar ko'rsatadiki, o'qituvchi bilimni nazorat qilishning qay usulidan foydalanmasin, asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratishi lozim:

1. Bilimni baholash sxemasini ishlab chiqishi lozim, mazkur sxemasida nazorat qilinayotgan soxa moxiyati va darajasi o'zaro mutanosib bo'lishi kerak, kursning maqsad va vazifalari to'lik qamrab olinishi lozim;

2. Ta'lim natijalarini nazorat qilishda qo'yiladigan baholar barkaror bo'lishi, ularning tasodifiy bo'lmasligiga erishish choralari ko'rilishi zarur (aniqlikni ta'minlash uchun).

Bunga erishish uchun bilimni baholashning muayyan mexanizmidan foydalanish kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, test sinovlari o'tkazishdan oldin baholash darajasi aniqlanishi kerak. Masalan, xar bir to'g'ri bajarilgan test topshirigi uchun 1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball beriladi. Agar test tarkibida bir nechta to'g'ri javob berilgan topshiriqlar bo'lsa, yordamchi indekslar asosida baholash darajasi belgilanadi.

1.3-§. "UNIVERSAL TEST" test dasturi haqida.

"Universal test" tarmoq versiyasi - bu Oliy o'quv yurtlari, o'quv muassasalari, tashkilot va idoralarda test olish orqali test topshiruvchilarni bilim darajalarini aniqlash, baholash hamda attestatsiyalar o'tkazishga mo'ljallangan dasturiy mahsulotdir.

"Universal test" tizimi klient - server texnologiyasiga asoslangan bo'lib, lokal hisoblash tarmog'ida ishlaydi.

"Universal test" tizimi 3 ta quyi tizimdan iborat. Bular:

"Admin.exe" tizimi (administrator tizimi) - tizimni boshqarish, foydalanuvchilar ro'yxatini olib borish, ma'lumotnomalarni yuritish, guruxlar va mavzularni yaratish, test natijalari ma'lumotlarini jamlab borish, ma'lumotlar arxivini olib borish, qaydnomalar, bayonnomalarni shakllantirish, test topshirish uchun mavzularni tanlash, ularga savollar sonini va ajratilgan vaqtni belgilash, test olish rejimlari va test jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan bir qancha moslama va o'rnatilishlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Statistika menyusi orqali test topshiruvchilar ma'lumotlarini qidirib topish, ularning har biri uchun bayonnomalar va test natijalari qaydnomalarini shakllantirish mumkin.

"Maker.exe" tizimi (Taxrirchi tizimi) - foydalanuvchilar uchun mavzularni taxrirlash, mavzularga savollarni kiritish va qayta o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Savollarni Microsoft Excel dasturi yordamida tayyorlab olib, tegishli mavzuga import qilish mumkin. Har bir savolga 5 tadan ko'p bo'lmagan javob varianti beriladi. Savollar javob berilishiga qarab, bir necha turga bo'linadi: Bitta javobli, ko'p javobli, ro'yxatni tartiblash.

Har bir savolga alohida ball beriladi. Savollarni qidirib topish, taxrirlash ishlari uchun tizimda juda qulay imkoniyatlar mavjud.

"Tester.exe" tizimi (Test oluvchi tizimi) - foydalanuvchilardan bir mavzu yoki bir necha mavzulardan iborat guruxli mavzuli test olish, ularning bilim darajalarini aniqlash va baholash ishlarini bajarish uchun mo'ljallangan. Test olish jarayonida savollarni ma'lumotlar bazasidan tasodifiy tanlab olish, javob variantlarini o'rnini almashtirish yoki almashtirmaslik, har bir savolga alohida bal(og'irlik) berish, savolga javob berishdan oldin tasdiq so'rash, savolga bir marta javob berish yoki orqaga qaytgan holda takroran javob berish imkoniyati mavjudligi, baholashni ballarda yoki % da ifodalash, test vaqtini chegaralash mumkin. Interfeys tili o'zbek va rus tilidan iborat.

1.4-§. Fanlarni o'zlashtishni baholashda kompyuter test dasturiy ta'minotlaridan foydalanilish.

Ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning nazorat sinovlarini yozma ish, og'zaki va test shaklida o'tkazib boriladi. Keyingi yillarda ta'lim tizimida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlardan biri – bu talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning test usuli bo'lib, uni multimediya texnologiyasida joriy qilish boshqa nazoratlarga nisbatan yengil bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda bilimlarni test sinovlaridan o'tkazuvchi test dasturiy ta'minotlari soni va turlari juda ko'payganligi test sinovlarini o'tkazilishini ommalashtirmoqda.

Nazorat sinovini test shaklida o'tkazilishi bu faqatgina o'quvchi yoki talabaga xos emas, balki boshqa qiziquvchilar uchun ham har qanday predmetdan to'liq nazorat o'tkazish imkonini beradi.

Test tizimlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- fandagi barcha o'quv materiallarini qamrab olinishi va ularning ballar bo'yicha tekis taqsimoti ta'minlanishi kerak;
- test savollarining tekis taqsimlangan generatsiyasi ko'zda tutilishi kerak;
- test natijalarining ob'ektivligi (adolatli) ta'minlanishi kerak;

Bugungi kundagi kompyuter texnologiyalari uchun bilimni baholovchi test dasturiy ta'minotlarini 2 guruhga ajratish mumkin:

1. Lokal kompyuterga mo'ljallangan test dasturiy ta'minoti.
2. Lokal tarmoq va Internetga mo'ljallangan test dasturiy ta'minoti.

Bu ikki guruh dasturiy ta'minotlari uchun umumiy bo'lgan jihatlar sifatida foydalanuvchi haqida ma'lumot kiritilishi, fanlarni tanlash imkoniyati, test savollari sonini va bajarish

vaqtini belgilash, testlarni ketma-ketlikda yoki tasodifiylik asosida o'qish, testning keyingi va oldingi savoliga o'tish, belgilash belgilamaslik ixtiyoriyligi, foydalanuvchi kiritgan ma'lumotiga qarab natijani olish kabilarni keltirib o'tish mumkin.

Lokal kompyuterga mo'ljallangan test dasturiy ta'minoti.

Afzalliklari. Bu dasturiy ta'minotini har bir kishi o'z kompyuteriga o'rnatib olib, unga test savollarini kiritib o'z bilim darajasini tekshirish, fanlarni test tarzda o'zlashtirish, individual shaklda shug'ullanish imkoniyatini beradi. Bunga lokal va Internet tarmog'i bo'lishi shart emas.

Kamchiliklari. Lokal kompyuterga mo'ljallangan test dasturiy ta'minotini va uning bazasini har bir kompyuter uchun alohida-alohida o'rnatib chiqish lozim. Bu esa kompyuterlar sonini ko'p bo'lishini, ularning uzluksiz ishlashini talab iladi. Bu dasturiy ta'minotning bazasi yangilanganda bu bazani qaytadan har bir kompyuter uchun joylashtirib chiqish kerak. Natijani ham har bir kompyuterdan olib ismi familiyasini qog'ozga tushirib chiqish lozim bo'ladi. Bu jarayon test oluvchidan ko'p vaqtni va ko'p resurslarni ta'minlanishini talab qiladi. O'zini bilim darajasini bilmoqchi bo'lgan kishi cheklangan muddatda va cheklangan o'rinlarda sinovdan o'tishi kerak bo'ladi. Yuqoridagi sabablar bu guruh dasturiy ta'minotlari kishiga ko'p noqulaychiliklar tug'dirishini ko'rsatib beradi va foydalilik koeffitsientini kamaytiradi.

Lokal tarmoq va Internetga mo'ljallangan test dasturiy ta'minoti. Mazkur dasturiy ta'minot Internet hamda lokal tarmoq orqali ko'pchilikni test nazoratidan o'tkazish yoki masofadan turib test sinovlarini topshirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotdir.

Afzalliklari. Bu dasturiy ta'minotni va test savollari bazasini lokal tarmoq serveriga joylashtirib, uni bu tarmoqqa ulangan har bir kompyuter uchun ishga tushirish imkoniyati mavjud. Hozirda o'quv muassasalarida kompyuter sinflari mavjud bo'lib ular lokal tarmoqqa bog'langan. Mana shu kompyuter sinflarida test nazorat sinovlarini ko'p sonli kishilar uchun tashkil qilish, ularni bir vaqtda adolatli va ishonchli tarzda bilimlarini baholab berish mumkin. Test savollar bazasi bir joyda ya'ni serverda yangilanadi. Natijalar ham serverda tashkil qilingan bazaga yozib boriladi, ularni jamlashda ham qiyinchiliklar tug'dirmaydi. Dasturning administrator qismiga kirib hamma natijalarni olib printerdan chiqarib olish mumkin.

Internetga mo'ljallangan test dasturiy ta'minoti orqali har bir nazorat sinovini o'tkazmoqchi bo'lgan foydalanuvchi xohlagan vaqtda, hohlagan o'rinda test nazoratidan o'tib, o'z bilimini baholay oladi. Bunday test nazoratini o'tkazishni tashkil qilgan saytlar soni yetarli darajada ekanligi bu dasturiy ta'minotlar keng ommalashganligini bildiradi. Bugungi kunda masofaviy ta'lim keskin rivojlanayotganligi, uning shakllari ham ko'payib borayotganligi hech kimga sir emas. Bunday tizim tashkil qilishda nazorat qismi sifatida aynan mazkur test dasturiy ta'minotini olishimiz mumkin.

Kamchiliklari. Bu dasturiy ta'minot ishlashligi uchun lokal yoki Internet tarmog'i bo'lishi kerak. Agar tarmoqda muammo paydo bo'lsa tarmoq test dasturiy ta'minoti ishlashiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Demak xulosa qilib shuni aytish mumkinki kompyuter texnologiyalari uchun tuzilgan test dasturiy ta'minotlari ichida lokal va internet tarmog'iga mo'ljallangan test dasturiy ta'minoti ko'p sonli nazorat sinovidan o'tuvchilarga hamda masofadan turib test topshiruvchilarga, Lokal kompyuterga mo'ljallangan test dasturiy ta'minotlari esa ko'proq individual tarzda fanlarni o'zlashtirish uchun foydalanishga qulay bo'ladi.

1.5-§. Kompyuter texnologiyalari yordamida test sinovlarini amalga oshirishni avtomatlashtiruvchi dasturlarni yaratish.

Hozirgi davr talabi asosida oliy o`quv yurtlarida test sinovlarini amalga oshirish, hamda talabalarning bilim salohiyatini tekshirish va uz urnida kerakli ma'lumotlarni qulay usul bilan berish asosiy maqsadlardan biri bo`lib hisoblanadi. Test sinovlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirish esa yaxshi natijalar berishini ta'kidlash lozimdir. Kompyuter texnologiyasi yordamida test sinovlarni amalga oshirish xamda sinovlarni bexato, qulay va ishonchli olinishini ta'minlashda kompyuter dasturlarni yaratish muammosi yuzaga keladi. Shu kabi sermahsul test jarayonlarini amalga oshirishda, quyidagi yaratilgan «Test sinovlarini amalga oshirish» ni avtomatlashtiruvchi dastur xam ana shunday muammolarni hal qilish yo`lidagi urinishlardan biri desak bo`ladi. Maqsad esa dasturning tuzilish jarayoni , ishlash prinsipi, qulayliklari hamda, bundan foydalanib qanday imkoniyatlarga erishish mumkinligini ko`rsatishdir.

Ushbu yaratilgan dastur asosan turli fanlardan test sinovlari asosida olinadigan savol javob xisobotlarini avtomatlashtirishga yo`naltirilgan. Shuni yana bir bor ta'kidlab o`tish joizki dasturni tuzishdan maqsad, birinchidan kompyuter imkoniyatlaridan unumli foydalanish bo`lsa, ikkinchidan ish unumdorligini oshirish ya'ni vaqtni tejash va o`z o`rnida ba'zi bir yo`l qo`yiladigan xatoliklardan holi bo`lish. Ushbu yaratilgan dastur ham ko`plab foydalanuvchilarga qulaylik yaratish bilan birga, yana bir bor kompyuter imkoniyatlarini qay darajada yuqori ekanligini va bu imkoniyatlardan to`liqroq foydalanish juda yaxshi natijalar olib kelishini ko`rsatadi.

Dastur har bir savol uchun beshtadan variant berish imkonini bersa, savollar soni esa cheklanmagan. Demak istalgancha savol xamda xar bir savol uchun 5 variantdan javoblar sonini kiritish mumkin. Test topshiruvchi uchun beriluvchi savol va variantlar tuplami «Бонпос» deb nomlangan tekst li fayl (Bloknot) ga kiritiladi. Xar bir savol uchun berilgan 5 ta variant ichidan tugri variant, savoldan


sung birinchi katorga yoziladi ya'ni «А» variant katori kiritiladi. Dastur ishlash jarayoni asosan 3 kismga bo`linadi va quydagicha nomlanadi:

1. «**Знакомство**» (Tanishish bo`limi)

2. «**Вопросы и варианты**» (Savol javob bo`limi)

3. «**Результат**» (Natijani e'lon kilish bo`limi)


1. Birinchi «**Знакомство**» bo`lim yordamida quydagi ikki: «Установить время» (Vaqtни urnatish) - berilgan savollarga belgilangan vaqt ichida javob berish uchun kerakli vaqtни urnatish va «Введите фамилия и имя» (Familiya va ismingizni kiriting) - test topshiruvi bilan tanishish maksadida, Familiyasi va ismini kiritishi uchun maxsus joy kursatilgan. (1.Rasm)



1. Rasm

«Установит время» bo`limiga tulikrok tuxtalsak. Bu bo`limda test topshiruvchi uchun kerakli oralikda vaqt urnatib kuyish mumkin. Buning eng kulay tomoni shundaki, test topshiruvch shu belgilangan vaqt ichida berilgan savol variantlariga javob berib ulgurishi shart, aks xolda shu vaqt ichida javob berishga ulgurilmagan savollar xisobga olinmay, tugri topilgan savollargagina «Ball» va «Baxo» kuyiladi. SHuni aytib utish kerakki kuyiladigan ballar joriy kilingan **Balli sistema** asosida amalga oshiriladi. Kolgan savollarni esa, barcha berilishi kerak bo`lgan savollar soniga nisbatan notugri deb xisoblanib, shu natija asosida tegishli «Ball» va «Baxo» kuyladi. Kerakli vaqt urnatilib, test topshiruvchi Familiyasi va ismi kiritilgach «OK» knopkasini bosish bilan quydagi kurinishdagi mulokot oynasi paydo bo`ladi.


2. Ikkinchi bo`lim «Вопрос и варианты» (Savol javob bo`limi) deb nomlanib, bu dasturning asosiy bo`limi xisoblanadi xamda test topshiruvchiga savol va variantlar takdim etiladi (2.Rasm).



2. Rasm

Dasturni ishlashi davomida tugri variant, xar bir test topshiruvchi uchun uz urnini almashtirib keladi va uz urnida, test topshiruvchilar biri - biri orkali tugri javob urnidan xabardor bo`lishini oldini oladi. Bu ishni dastur davomida **Randomize** va **Rnd** operatorlari juda xam ajoyib tarzda amalga oshiradi. Ushbu operatorlarning bizning dasturda ishlash prinsipi quyidagicha: 0 dan 19 gacha oralikdagi sonlar orasidan ixtiyoriy bir sonni tanlab oladi va shu olingan son asosida tugri variantlar urnini almashib kelishini ta'minlaydi. Bundan tashkari dasturning yana bir yaxshi imkoniyatlaridan biri shundaki, agar test topshiruvchi berilgan savolning notugri variantini tanlasa, ushbu savol kaysi tema asosida berilganligi va shu temada nimalarni bilish zarur ekanligi tugrisida izox berish amalga oshiriladi. Izox berishdan maksad esa, berilgan savol kaysi temaga tegishli ekanligi va savolga doir kerakli kursatmalar berish orkali, talabaning bilim salohiyatini oshirish bo`lib sanaladi. Bu bo`limni faollashtirish uchun «С комментарием» (Izox berish) bo`limiga bayrokcha (Flajka) kuyish etarli. Agar test topshiruvchi berilgan svolga javob berishni istamay, savolni utkazib yuborishi mumkin, utkazib yuborilgan savol esa berilishi kerak bo`lgan asosiy savollardan sung kaytadan takdim etiladi. Savolni esa «Пропустить» tugmasini bosgan xolda utkazib yuborib, keyingi savolga utish mumkin.

3.Uchinchi bo`lim «**Результат**» (**Natijani e`lon kilish bo`limi**) (3 Rasm). Bu yakunlovchi bo`lim bo`lib, olingan natijani ekranga chikaradi. Test topshiruvchini kursatgan natijasiga karab baxolash amalga oshiriladi. Baxolash joriy kilingan «**Ball sistema**» asosida amalga oshiriladi. Tugri topilgan savollar soni, barcha berilgan savollar soniga nisbatan protsent (%) xisobida aniklanib, kuydagicha natija chikariladi:



3. Rasm

$Label15.Caption = Val(Form1.Label4.Caption)$ ‘Berilgan savollar soni

$Label4.Caption = Val(Form2.Label3.Caption)$ ‘Tugri javoblar soni

$Label7.Caption = Val(Form2.Label4.Caption)$ ‘Notugri javoblar soni

$Sch = Val(Label4.Caption) + Val(Label7.Caption)$ ‘Barcha tugri va notugri topilgan savollar soni

$Vop = Vall(Label15.Caption) * 5$ ‘Barcha berilgan savollar 5 ga kupaytiriladi

$Tj = Val(Label4.Caption) * 5$ ‘Barcha tugri javoblar soni 5 ga kupaytiriladi

$Bal = Tj / Vop * 100$ ‘ Tugri topilgan savollar soni, barcha berilgan savollar soniga nisbatan foiz (%) xisobida aniklanib kuydagicha natija chikariladi:

Select Case Ball

Case 60 To 76 ‘ 60 dan 76 gacha oralikda bo`lsa

Label11.Caption = Tt ‘ Tuplangan ballar soni

Label12.Caption = 3 ‘ Kuyilgan baxo

Label14.Caption = "(zachteno)" ‘ Xisoboti

Case 76 To 86

Label11.Caption = Tj

Label12.Caption = 4

Label14.Caption = "(zachteno)"

Case 88 To 100

Label11.Caption = Tj

Label12.Caption = 5

Label14.Caption = "(zachteno)"

Case 0 To 59

Label11.Caption = Tj


Label12.Caption = 2

Label14.Caption = "(nezachteno)"

End Select

Shuni aytish joizki, xar bir test topshiruvchining kursatgan natijasini xisoblash juda yaxshi amalga oshiriladi, bunda xar – bir test topshiruvchining Familiyasi va ismi xamda kursatgan natijasi «Результат» deb nomlangan tekstli fayl (Bloknot)ga yozib koldiriladi va olingan natijani esa chop kilish imkoniyatini beradi.

Dasturdan chikish uchun «Выход » tugmasi bosilsa, dasturdan chikishni tasdiklovchi mulokot oyna paydo bo`ladi. Dasturdan chikish uchun «Net», aksincha esa dasturni kaytadan yuklash uchun «Да» tugmasi bosiladi. (5 rasm).



5. Rasm

